

«KELISHILDI»

**QASHQADARYO VILOYAT
HOKIMLIGI “YAGONA BUYURTMACHI
XIZMATI” IK DIREKTORI**


A.B. NORMUMINOV
2022 y.



**Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahri “Fayzobod” MFYga 1 dona yangi
inshoot qurish va 12 km toza ichimlik suvi tarmog’ini tortish.**

TEXNIK TOPSHIRI

Qarshi sh. – 2022 y.

t/r	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Loyiha buyurtmachisi	Qashqadaryo viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi
2	Loyihalashtirilayotgan ob'ektning nomlanishi	Shahrisabz shahri "Fayzobod" MFYga 1 dona yangi inshoot qurish va 12 km toza ichimlik suvi tarmog'ini tortish.
3	Loyihalashtirish ob'ektining manzili	Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahri "Fayzobod" MFY
4	Loyiha ishlab chiqish uchun asos.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktabrdagi PQ-408-sonli qarori
5	Moliyalashtirish manbai	Davlat byudjet
6	Qurilishning taxminiy qiymati, mln.so'm.	Loyihani taxminiy hisobiy qiymati. 2 500,0 mlrd.so'm. Loyiha ishlari bajarilgandan so'ng yakuniy ekspert hisobiga asosan aniqlanadi.
7	Loyiha ishlarini amalga oshirish uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan texnik shartlar va loyihasi ishlab chiqiladigan muhandislik tarmoqlari	Buyurtmachi tomonidan qurilish ob'ektini tashqi muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlash uchun taqdim etiladigan texnik shartlar: - sug'orish ta'minoti; Muhandislik ta'minoti belgilangan tartibda tegishli tashkilot va korxonalar bilan kelishilishi shart.
8	Loyihalanadigan ishlar tarkibi	Ko'p qavatli turar-joy binolari hududini obodonlashtirish, muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlanishini ShNQ 1.03.02-04* «Hududlarni rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish bo'yicha shaharsozlik hujjatlarini tarkibi, ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma» talablari asosida bajarish: - Muhandislik tarmoqlari (sug'orish ta'minoti); - Smeta hujjatlari; - Tushuntirish xati.
9	Bosh loyihachi	Tanlov natijasiga ko'ra aniqlanadi.
10	Buyurtmachi tomonidan loyihachi tashkilotiga loyiha ishlari boshlanishiga qadar taqdim etilishi kerak bo'lgan birlamchi ma'lumotlar ro'yhati.	a) viloyat qurilish bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan "Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i" (1 va 2 qism) b) 1:500 nisbatdagi topografik tasvir (2022 y);
11	Bosh pudratchi	Tanlov asosida
12	Qurilish ishlarini boshlash va tugallash muddatlari.	Boshlanishi – pudratchining grafigi asosida. Tugallanishi – grafik asosida.

13	Qurilish maydoni sharoiti	Talab qilinmaydi.
14	Loyihani ishlab chiqishda qo'shimcha talablar	-Tashqi yoritish uchun fotoelektr quyosh panelli yoritgichlardan foydalanish. -Nogironlar xayoti sharoiti talablarini bajarishda QMQ 2.07.02.-07 "Insonlarning xayoti va faoliyati muhitini nogironlar extiyojini va aholining kamharakatlanuvchi guruhlarini hisobga olgan holda loyihalash" talablarini inobatga olish.
15	Loyihani kelishish va tasdiqlash.	Loyiha bilan bog'liq bo'lgan (ajratilgan yer maydoni hududini holatidan kelib chiqib) tegishli tashkilot va korxonalar bilan kelishish.
16	Ekologik chora-tadbirlarni ishlab chiqish talablari va shartlari	"Atrof-muhitga ta'sirini baholash loyihasi" qismini ishlab chiqish.
17	Loyiha xujjatlarini ishlab chiqish muddati.	Loyihalash muddati shartnomaning reja grafigiga ko'ra amalga oshiriladi.
18	Qurilishda mualliflik nazorati	Mualliflik nazoratini olib borish loyixa tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan grafik asosida olib boriladi. Ob'ektda pudratchi yoki buyurtmachi tomonidan muammoli masala va taklif kiritilishi ko'tarilganda loyixachining ob'ektga borishi zarur vas hart xisoblanadi.
19	Loyixa tashkilotining majburiyatlari	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qarorini 4-ilovasi II-bo'lim 8-punkti hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda PQ-43-sonli qaroriga asosan ga ko'ra loyihalash jarayonida yo'l qo'yilgan hato va kamchiliklarga bosh loyixa tashkiloti tomonidan javobgar etib ko'rsatilganligi sababli loyiha ishlari uchun o'zaro tuzilgan shartnomaning 70% miqdoridagi jarima qo'llanilishini va bosh pudratchiga etkazilgan zararni (buzib olish ishlari) uz xisobidan qoplab beradi.
20	Loyihalashning alohida talablari	Loyiha hujjatlari 3 (uch) nusxada, smeta hujjatlari 1 (bir) nusxada tayyorlab topshiriladi.

Qashqadaryo viloyati hokimligi
"Yagona buyurtmachi xizmati" IK
loyiha bo'limi boshlig'i:

T. Turaev